FUTBOL SPORT TURI BO‘YICHA MUSOBAQALAR O‘TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH KOMPETENTSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH

Izzatullayev Sunnatulla Shermuxammad o‘g‘li
Guliston davlat universiteti Sport turlarini o‘qitish uslubiyati o‘qituvchisi
e-mail: sunnatullaizzatullayev@gmail.com

Annotatsiya. Ush bu maqolada talabalarda futbol sport turi bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish va hakamlik qilish kompetentsiyalarini takomillashtirish jismoniy tarbiya darslarini futbol mashg‘ulotlarini samarali tashkil qilishning dasturlarini ishlab chiqish asosida takomillashtirish haqida kengaytirilgan ma’lumotlar berib o‘tilgan. Futbol sport turi bo‘yicha musobaqalar o‘tkazish usullari haqida hamda nizomini tuzish hakamlaring vazifalari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit sozi. Futbol, sport, musobaqa, usullar, nizom, hakam, musobaqalar o‘tkazish, mashg‘ulot.

Annotation. In this article, detailed information is given on the improvement of the competences of conducting football competitions and refereeing among students based on the development of programs for the effective organization of football training in physical education classes. Information is given about the methods of conducting football competitions and the duties of referees in drawing up the regulations.

Key word. Football, sport, competition, methods, regulations, referee, conducting competitions, training.

Globallashib borayotgan hozirgi davrda sport davlatlarning rivojlanishi va xalqaro miqyosda milliy nufuzini oshirishda yetakchi omillardan biri sanaladi. Jismoniy madaniyat kishilar salomatligida muhim o‘rin tutib, ishlab chiqarish va mehnat unumdorligini ta’minlaydi. Jahonda yuz berayotgan madaniy o‘zgarishlar, sanoatlashuv va urbanizatsiya jarayonlari sportning o‘sishini ta’minlovchi faktorlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda ko‘pgina rivojlangan davlatlar jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirish yuzasidan o‘zlarining strategiyalarini ishlab chiqmoqda. Ayniqsa, Xalqaro Olimpiya Qo‘mitasi va xalqaro sport tashkiloti (FIFA) tomonidan rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda sportni rivojlantirish yuzasidan izchil tadbirlar olib borilmoqda. Xususan, aholi salomatligini muhofaza qilishda jismoniy tarbiyaning rolini oshirish, sport turlari bo‘yicha musobaqa o‘tkazish va hakamlik qilish kompetensiyalarini rivojlantirish, sport o‘yinlari metodikasini standartlash, tizimli sport musobaqalarini tashkil etish kabilar shular jumlasidandir.[3]

Tadqiqot obyekti va qo‘laniladigan metodlar. Tadqiqotning obyekti sifatida gimnastika sport turi bo‘yicha talabalarda sport musobaqalari o‘tkazish va hakamlik qilish kompetentsiyalarini rivojlantirish jarayoni. Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda pedagogik kuzatuv, so‘rov, suhbat, anketa, test, intervyu, usullaridan foydalanildi.

Olinadigan natijalar va ularning taxlili. Sovrinli o‘rinlar, shuningdek, musobaqada qatnashuvchi jamoalar yoki jismoniy tarbiya jamoalari (natijalar klublar bo‘yicha hisobga olinganda) egallaydigan barcha keyingi o‘rinlar aniqlanadigan biron-bir rasmiy musobaqa o‘tkazishdan avval, musobaqa haqidagi nizom tuzilgan bo‘lishi kerak. Bu nizom futbol federatsiya yoki musobaqani o‘tkazuvchi boshqa biror tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.[1]

Musobaqa nizomi katta yuridik kuchga ega bo‘lgan hujjatdir. Unda asosiy tashkiliy va texnik shart-sharoitlar aniq bayon qilingan bo‘ladi.

Nizom o‘quv-mashg‘ulot ishlarining mazmunini belgilab beradi, chunki jamoalarning tashkiliy-uslubiy tayyorgarligi bo‘lajak musobaqalarning xususiyatlarini hisobga olgan holda

o‘tkaziladi. Musobaqada qatnashuvchi jamoalarning tayyorgarlik ko‘rish uchun yetarli vaqtga ega bo‘lishlari nazarda tutilib, nizom oldindan tasdiqlanishi va tarqatilishi kerak. Musobaqani o‘tkazish davrida tasdiqlangan nizomdan chetga chiqishga yo‘l qo‘yilmaydi, aks holda mazkur musobaqani o‘tkazayotgan tashkilotning obro‘yiga putur yetadi va keraksiz nizolarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi, holos.

Musobaqa nizomida quyidagi masalalar aks ettirilgan bo‘lishi kerak:

1. O‘tkazilayotgan musobaqaning maqsadi va vazifalari.
2. Musobaqani kim o‘tkazishi (federatsiya, tashkiliy komitet va hokazolar).
3. Musobaqa o‘tkazish muddatlari va shartlari.
4. Musobaqaga qo‘yiladigan jamoalar soni va nomi, talabnomaga kiritiladigan qatnashchilarning maksimal miqdori.
5. Musobaqa o‘tkaziladigan o‘yin tizimi (davralari — bir yoki ikki davrali, mag‘lubiyatdan keyin o‘yindan chiqib ketiladigan, aralash tizim).
6. Hisobga olish tizimi va jamoalarning hamda jismoniy tarbiya jamoalarining (natijalar klublar bo‘yicha hisoblanganda) egallagan o‘rinlarini aniqlash tartibi.
7. Musobaqalarning alohida shartlari (qanday hollarda o‘yinda qo‘shimcha vaqt belgbilanishi va uning davomiyligi, o‘yin durrang bilan tugallanganda yoki o‘tkazilgan musobaqa natijasida ochkolar soni teng bo‘lganda. G‘olibni aniqlash usullari, o‘yin qoidalarida ko‘rsatilgandan tashqari nechta o‘yinchi almashtirish mumkinligi va hokazolar).
8. Jamoalarni va musobaqa qatnashchilarini rasmiylashtirish tartibi, shakli, o‘yinchilarga talabnomalar berish va qayta talabnoma berish muddati.
9. Musobaqalarni olib boradigan hakamlar jamoasining nomi.
10. O‘tkazilgan o‘yinga norozilik bildirish va uni ko‘rib chiqish, shuningdek, o‘yinchilarni maydondan chiqarib yuborish yoki ularni ogohlantirish bilan bog‘liq bo‘lgan intizom masalalarini qarab chiqish tartibi.
11. O‘yinchilar intizomni buzganligi uchun jamoalarning javobgarligi hamda stadion va klublar ma’muriyatining o‘yin o‘tkazish vaqtida tartib saqlanishi uchun javobgar bo‘lishi.
12. Musobaqa o‘tkaziladigan joylar va ularga qo‘yiladigan talablar.
13. G‘oliblami mukofotlash hamda oxirgi o‘rinlarni egallagan jamoaning yoki jamoalarning keyingi xuddi shunday musobaqada qatnashish shartlari.

Davrali tizim musobaqaning davrali tizimida har bir jamoa, agar musobaqa bir davrali o‘tkazilsa, bir-biri bilan bir marta, agar musobaqa ikki davrali o‘tkazilsa, ikki marta uchrashishi kerak. Uning bunday tizim yoki adolatli musobaqalashuvchilar kuchlari nisbatini ancha oqilona belgilashga va kuchli jamoani aniqlashga imkon beradi, bunda musobaqaning umumiy yakunidagi tasodifiylik elementi ma’lum darajada bartaraf qilinadi. Bu tizim bo‘yicha musobaqalarni ikki davrali qilib o‘tkazish eng to‘g‘ri hisoblanadi. Davrali tizimda musobaqa ishtirokchilarining barcha o‘rinlari to‘plangan ochkolar soniga qarab aniqlanadi. O‘tkazilgan barcha o‘yinlar natijasida eng ko‘p ochko olgan jamoa (yoki jismoniy tarbiya kollektivi) g‘olib hisoblanadi. Bir yoki bir necha jamoalarda ochkolar teng bo‘lib qolganda, g‘olibni aniqlash uchun musobaqa tartibida qandaydir qo‘shimcha ko‘rsatkichlar yoki tadbirlar (masalan, shu jamoalar o‘rtasida qo‘shimcha o‘yin yoki shu jamoalar o‘rtasidagi avval o‘ynalgan o‘yin natijalari, yoki kiritilgan to‘plar nisbati) nazarda tutilgan bo‘lishi kerak.[3]

Davrali tizim bo‘yicha o‘ynash tartibida qur’a tashlash bilan musobaqada qatnashuvchi jamoalarning nomerlari aniqlanadi. Jamoalarning aniqlangan raqamlari asosida o‘yinlar jadvali (kalendari) tuziladi. Musobaqalar bir davrali qilib o‘tkazilganda, o‘yin bir-biri bilan bellashuvchi ikki jamoadan dastlabkisining maydonida o‘tkaziladi. Agar musobaqada ikki davra nazarda tutilgan bo‘lsa, ikkinchi o‘yin keyingi jamoa maydonida o‘tkazilishi kerak. Davrali tizim bo‘yicha o‘tkaziladigan o‘yinlar kalendarini uch usul bilan tuzish mumkin. Birinchi usul. Musobaqada ishtirok etuvchi jamoalar soniga qarab, jamoalarning umumiy soniga yaqin bo‘lgan toq son olinadi va unga muvofiq ravishda vertikal chiziqlar o‘tkaziladi. Masalan, 6 ta jamoa bo‘lganda, unga (ya’ni 6 soniga) yaqin bo‘lgan toq son 5 bo‘ladi. Demak, besh vertikal chiziq o‘tkazish zarur.

Jamoalar soni 10 ta bo‘lganda, unga yaqin toq son - 9, demak, to‘qqizta vertikal chiziq chizilgan bo‘lishi kerak va xokazo.[2]

Vertikal chiziqlarning ostidan va ustidan, pastdan boshlab chapdan o‘ngga qaratib jamoalar nomeri ketma-ket tartibda birinchidan musobaqada qatnashuvchi jamoalarning umumiy soniga eng yaqin bo‘lgan toq songacha, orada bir chiziq qoldirib yozib chiqiladi. Bu raqamlar keyingi raqamlarni grafik tarzida yozish uchun dastlabki reja bo‘lib hisoblanadi. Birinchi kun o‘yinlar taqvimini tuzish uchun birinchi raqamdan boshlab vertikal chiziq atrofida soat strelkasiga qarshi yo‘nalishda oshib boruvchi tartibda barcha ishtirok etuvchi raqamlar yozib chiqiladi. Qolgan o‘yin kunlarining taqvimini tuzish uchun vertikal chiziqlar o‘rtasidagi barcha raqamlar, avval ularning ostiga va ustiga qo‘yilgan raqamlarni hisobga olgan holda, ilonizi qilib qo‘yib chiqiladi. Shuni ham aytish kerakki, raqamlar birin-ketin vertikal chiziqlarning o‘ng tomonidan ortib boruvchi tartibda takrorlanib yoziladi.[4]

Shundan keyin ikkinchi va qolgan taqvim kunlarida bellashuvchi jamoalami aniqlash uchun har bir vertikal chiziqning chap tomoniga avvalgi taqvim kunidagi barcha raqamlar o‘zgarishsiz o‘tkazilishi kerak.[3]

10 jamoa uchun o‘yinlar taqvimini tuzish

(10 ga eng yaqin bo‘lgan kichik toq son - 9)

		6			7			8			9			
6	5	5	7	7	6	6	8	8	7	7	9	9	8	8	1	1	9
7	4	4	8	8	5	5	9	9	6	6	1	1	7	7	2	2	8
8	3	3	9	9	4	4	1	1	5	5	2	2	6	6	3	3	7
9	2	2	1	1	3	3	2	2	4	4	3	3	5	5	4	4	6
1				2				3				4				5	

Tur bo‘yicha o‘yinlar

1-tur	2-tur	3-tur	4-tur	5-tur	6-tur	7-tur	8-tur	9-tur
1-10	10-6	2-10	7-10	3-10	8-10	4-10	9-10	5-10
2-9	1-2	3-1	2-3	4-2	3-4	5-3	4-5	6-4
3-8	9-3	4-9	1-4	5-1	2-5	6-2	3-6	7-3
4-7	8-4	5-8	9-5	6-9	1-6	7-1	2-7	8-2
5-6	7-5	6-7	8-6	7-8	9-7	8-9	1-8	9-1

Xulosa. Futbol musobaqalari va hakamlik faoliyatini takomillashtirish sportning yaxlitligi, hayajonliligi va adolatliligini saqlab qolish uchun juda muhimdir. Turnir tuzilmalarini takomillashtirish, moliyaviy adolatni ta'minlash va yoshlar rivojlanishiga sarmoya kiritish orqali raqobat muhiti yanada muvozanatli va qiziqarli bo‘lishi mumkin. Ilg‘or texnologiyalarni integratsiyalash, global targ‘ibotni rag‘batlantirish va muxlislarning faolligini oshirish barcha ishtirokchilarning tajribasini yanada boyitadi.

Hakamlik sohasida har tomonlama tayyorgarlik, texnologik yordam va shaffof ish faoliyatini baholash hakamlik standartini oshirishning kalitidir. Hakamlarning jismoniy va ruhiy farovonligini qo‘llab-quvvatlash, xilma-xillik va inklyuzivlikni rag‘batlantirish bilan birga, yanada mustahkam va vakillik hakamlik jamiyatini ta'minlaydi. Oxir oqibat, bu chora-tadbirlar o‘yinchilar, hakamlar va muxlislar uchun foydaliroq, adolatli, dinamik va qiziqarli futbol muhitini ta'minlaydi. Doimiy takomillashtirishga intilish orqali futbol halol o‘yin va qiziqarli raqobat bilan ajralib turadigan dunyodagi eng sevimli sport turi sifatidagi maqomini saqlab qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sunnatulla, I. (2023). Improving the competences of conducting sports competitions and refereeing among students in the conditions of digitalization. Confrencea, 11(1), 149-153.

2. Izzatullayev S.Sh. SPORT TURLARI BO‘YICHA MUSOBAQALAR O‘TKAZISH VA HAKAMLIK QILISH. [O‘quv qo‘llanma] “GRAND KONDOR PRINT”, — Toshkent 2023 y., 248 bet.

3. Nurumbekova, Y. (2021). Training of future teachers to professional educative activity on the basement. *Journal of Central Asian Social Studies*, *2*(01), 66-74.

4. NURUMBEKOVA, Y. (2024). BO‘LAJAK MUTAXASSISLARDA KOUCHING KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH DARAJASINI BAHOLASH VA TASHXISLASH ASOSIDA UNI PEDAGOGIK KORREKSIYALASH. *Молодые ученые*, *2*(3), 11-14.

5. NURUMBEKOVA, Y. (2024). BO‘LAJAK MUTAXASSISLARDA KOUCHING KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH DARAJASINI BAHOLASH VA TASHXISLASH ASOSIDA UNI PEDAGOGIK KORREKSIYALASH. *Молодые ученые*, *2*(3), 11-14.

6. Nurumbekova, Y. (2023). SKILLS ENSURING COACHING EFFECTIVENESS. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, *2*(11), 34-39.

7. Nurumbekova, Y. (2023). ADVANCED METHODS AND STEPS OF PROFESSIONAL PROFESSIONAL IMPROVEMENT OF COACHING BASED ON INNOVATIVE APPROACHES. *Current approaches and new research in modern sciences*, *2*(11), 44-47.

8. Anarmatovna, Y. N. (2023). Coaching Skills Improvement System for Future Educator Psychologists. *American Journal of Science on Integration and Human Development (2993-2750)*, *1*(10), 82-87.

9. Nurumbekova, Y. (2023). FAOL KUZATISH EMPATIYA, REFLEKSIYA, IDENTIFIKATSIYA–KOUCHINGNING SAMARALI VOSITALARI SIFATIDA. *Interpretation and researches*, *2*(1).

10. Nurumbekova, Y. (2023). THE TYPES AND MAIN PRINCIPLES OF COACHING. *Science and innovation*, *2*(B2), 243-247.